**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TALIM VAZIRLIGI**

Al - Xorazmiy nomidagi

Urganch Davlat Universiteti

Tabiatshunoslik va Geografiya fakulteti

«Geografiya» kafedrasi 4 – kurs talabasi

Matchanova Zarina

# Bitiruv malakaviy ishi

## Mavzu: Geografiyadan amaliy mashg’ulot daftarini yaratish (6-sinf misolida)

Kafedra mudiri: dots. Avezov A.A.
Taqrizchi: g.f.n.Ro’zmetov.D.R.
Ilmiy rahbar: dots.Matsaidova S.X.

Urganch - 2012

# Geografiyadan amaliy mashg'ulot daftarini yaratish (6-sinf misolida)

**Reja:**

Kirish.

I.Bob.Geografiya darslarida geografiyadan amaliy mashg'ulot daftarinining ahamiyati.

1.1. Geografiyadan amaliy mashg'ulot daftari bilan ishlash.

1.2. Geografiya darslarida geografiyadan amaliy mashg'ulot daftari bilan ishlash va uning o'quvchilar bilimini oshirishdagi ro'li.

II.Bob.Geografiyadan amaliy mashg'ulot daftarining tuzilishi va undan darslarda foydalanish.

2.1. Litosfera,Atmosfera va iqlim mintaqalari bo'limi bo'yicha amaliy mashg'ulot daftarining tuzilishi.

2.2. Dunyo okeani ,gidrosfera ,biosfera bo'limi bo'yicha amaliy mashg'ulot daftari ning tuzilshi.

2.3. Afrika materigi bo'yicha amaliy mashg'ulot daftarini tuzilishi.

2.4. Avstraliya materigi bo'yicha amaliy mashg'ulot daftarini tuzilishi.

2.5. Janubiy Amerika materigi bo'yicha amaliy mashg'ulot daftarini tuzilishi.

2.6. Antarktida va Shimoliy Amerika materigi bo'yicha amaliy mashg'ulot daftarini tuzilishi.

2.7. Yevrosiyo materigi bo'yicha amaliy mashg'ulot daftarini tuzilishi.

III.Bob. Geografiyadan amaliy mashg'ulot daftaridan foydalanishda tajriba sinov ishlari va natijalari.

3.1. Geografiyadan amaliy mashg'ulot daftaridan foydalanishda tajriba sinov ishlari.

3.2. Geografiyadan amaliy mashg'ulot daftaridan foydalanishda tajriba sinov natijalari.

Xulosa.

# KIRISH

O’zbekiston Respublikasida davlat mustaqilligining birinchi yilidan boshlab yoshlar ta’limi va tarbiyasiga alohida etibor qaratilmoqda. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida” gi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ni qabul qilinishi yosh avlod kamoloti uzliksiz talim tizimining ravnaqi haqidagi chinakkam g’amho’rlikning dalilidir.

Halq ta’limi hodimlarining asosiy vazifasi mustaqil o’zbekistonning munosib farzandlarini tarbiyalash, aniqrog’I bilimdan vatanparvar, milliy iftihor tuyg’ulari jo’sh urib turgan. Bozor munosabatlari sharoitida faoliyat ko’rsata oladigan yangi avlodni kamol topshirishdir. Bunga erishish uchun umumiy o’rta ta’limini takomillashtirishning eng maqbul mazmunini shakl va metoslarini yaratish taqozo qilinadi.

Barkamol shaxsni shakllantirishga imkon beriuvchi o’quv tarbiya jarayonini qayta qurishning muhim vazifasi maktab talimi samaradorligini oshirishdir. Ta’li, samaradorligi ta’lim mazmunining maqsadi va vazifalariga mosligi, uning ilmiy jihatdan asoslanganligi izchilligi , turmush bilan bog’liqligi , shuningdek mazmunga mos metodlar shakllar va vositalar majmuasining tanlanishi ta’minlanadi. [2.3]

Ta’lim samaradorligini ta’minlovchi asosiy shart  sharoitlardan biri o’quvchilarning o’qishga ijobiy munosabatni rag’batlantirish turli tuman ta’lim vositalaridan foydalanish hisoblanadi.  Bu vositalar ichida ilg’or pedogogik texnologiyaning muhim tarkiriy qismi hisoblangan geografiyadan amaliy mashg’ulot daftari muhim o’rin tutadi.

Bu biriruv malakaviy ishida yer haqidagi fanlardan eng qiziqarlisi materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi hisoblanadi.

Bu daftarda kiritilgan hamma malumotlar 6-sinf uchun maktab dasturi talablariga javob beradi. 6-sinf materiklar va okeanlar  tabiiy geografiyasi kursini o’rganishda 6-sinf Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi darsligidan foydalanilgan. Bu daftarda turli vazifalar, savollar sxemalar , topishmoqlar , karta

sxema va jadvallar taklif qilinadi. Ular shunday tuzilganki qiziqarli ma'lumotlarni o'quvchilarni qiziqtiruvchi hususiyatlar bo'lishi bilan ajralib turadi. Bunday vazifalar daftarimizda yulduzcha bilan berilgan. [4]

Materiklar va okeanlar tabiiy geografayasida yer tabiatining rang barangligi bilan tanishadilar. Shu kungacha O'zbekiston maktablari o'quvchilari uchun maktabda geografiyadan amaliy mashg'ulot daftari yaratilmagan.

Bitiruv malakaviy ishimda materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursida amaliy mashg'ulot daftarini yaratishdan maqsad bugungi kunning o'quvchisi geografik bilimlarini izchillikda o'rganishi, ta'lim samaradorligini oshirish va o'z milliyligimizga ega bo'lgan milliy geografiya daftarlarini yaratish maqsad qilib qo'yildi. Daftarni yaratishda ko'pchilik pedagog, metodist o'qituvchilar ishlaridan foydalanildi. Jumladan R. Kurbonniyozov, G'ulomov, O. Mo'minov, X. Vahobov va boshqa chet davlatlar darsliklari va jurnallar, maqolalardan foydalanildi. Adabiyotchilarni o'rganish jarayonida ko'pchilik manbaalarda faqat geografiyadan amaliy mashg'ulot daftari deganda o'quvchining geografiya fanidan tutgan daftari to'g'risida so'z yuritilgan. Bizni tavsiya qilmoqchi bo'lgan amaliy mashg'ulot daftarimiz tayyor savol va topshiriqlari bilan tahririyatda chop qilingan daftar nazarda tutiladi. Biz bitiruv malakaviy ishimizda oldimizga qo'ygan maqsadni amalgam oshirish maqsadida izlanishlar olib bordik va geografiyadan amaliy mashg'ulot daftarini darslik asosida yaratishga harakat qildik. Amaliy mashg'ulot daftarini yaratish bilan birga daftar bilan ishlashning ahamiyati to'g'risida ham izlanishlar olib bordik.

# I.bob. Geografiya darslarida geografiya amaliy mashg'ulot daftarining ahamiyati

## I.1. geografiyada amaliy mashg'ulot daftari bilan ishlash

Maktab geografiya darslarida amaliy mashg'ulot daftaridan foydalanish ma'lum vazifalarni ko'zlaydi. Bu vazifalarni odatda 2qismga bo'lamiz. Ya'ni birinchidan, o'quvchilarni mustaqil ishga undaydi (Irodani, Xotirani, idrokni yuksaltirish). Ikkinchidan, tarbiya berish (O'quvchilarni to'g'ri dunyoqarashga o'rgatish) vazifalarni.

Bu geografiyani amaliy mashg'ulot daftari geografik qobiq tuzilishini, materiklar va umuman yer sharining tabiiy hususiyatlari bilan materiklar tabiatini mustahkamlab o'rganishga undaydi. Bu geografiyadan amaliy mashg'ulot daftari yuqorida ko'rsatilgan ikkita vazifaga munosib bo'lishi uchun, geografik nom va terminlarni qup-quruq yodlab olishga aylantirib yubormasligi uchun geografiyadan amaliy mashg'ulot daftaridan foydalanish mumkin. Bu daftar orqali geografik nomlarni, ob'ektlarni daftardan konturga tushurish, hamda undagi savollarga javob yozish, mavzu bo'yicha geografik nomlarni, terminlarni ongli ravishda aniqlashga undaydi: [16]

O'qituvchi va o'quvchilar geografiyadan amaliy mashg'ulot daftarining ahamiyati nimadan iborat ekanligini ochiq ravshan bilib olishlari zarur.

Bu daftarning tarbiyaviy ahamiyati dastavval shundan iboratki o'quvchilarning materialistic dunyo qarashini bilib olishga yordam beradi. Undan tashqari o'quvchilarni tabiat hodisasiga har taraflama va muassal ravishda qarashga o'rgatadi. Bu amaliy mashg'ulot daftarida berilgan kartasxema va jadvallarni to'ldirilishi o'quvchilarning kuzatuvchanlik qobiliyatini yuksaltirishda yordam beradi.

Geografiyadan amaliy mashg'ulot daftarida turli nom faqt va raqamlarning ko'pligi uchun bu dafarda taqqoslash metodidan ham foydalanilga. Masalan; Afrika va Avstraliya materiklarining o'xshash va farqli tomonlarini jadvalda aks ettirishi kerak. Taqqoslash orqali bir hududning ikkinchi bir hududdan farqini bilib

oladi. Bu esa o'quvchilar xotirasini o'stiradi. Materiallarini qoida tarzida emas, boshqa har turli taqqoslash yo'li bilan esda saqlashga o'rgatadi. Bu daftardan foydalanish kundalik hayotda ahamiyati nihoyatda katta. Chunki o'quvchilar materiklar va ularning tabiatini mustaqil o'rganishi ularning aqliy saviyasini kengaytiradi, hamda ularga har qadamda zarur bo'lgan bilimlarni yanada mustahkamlaydi. O'quvchi keyinchalik qanday kasbni egallamasin unga geografik bilimlar hamisha kerak bo'ladi.

Bu daftar geografik bilimlarni yanada kengaytirib chuqurlashtiradi.

O'qituvchi geografiyadan amaliy mashg'ulot daftarini o'quvchilar uchun shunday katta ahamiyatini doimo tushuntirib borishi ammo umumiy gaplar bilan emas, balki aniq misollar bilan isbotlab berishi lozim. O'qituvchi hamisha shu narsani esda tutsin, shunda daftar orqali geografik bilimlarni mustahkamlaydi va egallagan bilimlarni turmushda kerak bo'ladigan predmeti deb qaraydilar.

Agar ba'zan o'qituvchilarning umid qilganlari va kutilgan natijalari bo'lmay qolsa, unda bu predmetning aybi emas, balki o'qituvchining aybidir.

## 1.2. Geografiya darslarida geografiyadan amaliy mashg'ulot daftari bilan ishlash va uning o'quvchilar bilimini oshirishdagi ro'li

Geografiya ta'limida geografiyadan amaliy mashg'ulot daftaridan foydalanish o'quvchilar hayotida katta ro'l o'ynaydi.

Geografiya ta'lim metodikasi nuqtai nazardan qaraganda geografiyadan amaliy mashg'ulot daftaridan foydalanish bu quyidagi vazifalarni bajaradi.

1. Biror mavzuni mustaqil o'zlashtirish uchun xizmat qiladi.
2. Geografik hodisalarni mukammal bilib olishga yordam beradi.
3. Amaliy mashg'ulot daftari ta'limda psixologik va pedogogik vazifalarni bajaradi.

Ya'ni uning yordamida bilimlarning egallanishi, esda qolishi va ma'lum bir tizimga tushishni yengillashtiradi. Yuqoridagi vazifalar geografiyadan amaliy

mashg'ulot daftarini o'rganishda bilimlar bir-birini to'ldiradi.

Amaliy mashg'ulot daftaridagi joy va karta sxemalarini o'rganish maqsadida o'quvchi xilma-xil ma'lumotlarga ega bo'ladi. Amaliy mashg'ulot daftari o'quvchilarda ko'nikma va malakalarini shakllantirish uchun quyidagi tizim asosida olib borish maqsadga muvofiq.

a) Amaliy mashg'ulot daftarini 6-sinfda geografiyaning 1-darsidan boshlab foydalanib borish kerak.
b) Dftarda berilgan muammoli savollarni o'zlari egallagan bilimlari yordamida daftarga mavzu bo'yicha xulosalar yoza olishi kerak .

Har qanday ob'ekt va hududni geografik o'rganishda amaliy mashg'ulot daftaridan foydalana bilish, ta'limda eng asosiy maqsadi bo'lgandagina o'quvchilarga geografiyadan amaliy mashg'ulot daftarini o'rgatish mumkin.

Aks holda bu tushunchalarning mazmunini ochib berishga uning muhim belgilarini bilib olishga imkoniyat yaratilmaydi.

Geografiyadan amaliy mashg;ulot daftari materiklar hududini geografik o'rnini o'rgatish bo'yicha boshqa kurslarga qaraganda ancha boy imkoniyatga ega. Materiklarning geografik joylashuvi amaliy mashg'ulot daftarida o'quvchilarga quyidagicha berilgan.

Masalan: Afrikaning geografik joylashuviga ta'rif beriladi va javoblar yozib boriladi.

1.1.jadval

| Geografik joylashuvining o'ziga hos hususiyatlari | Javoblar |
|---|---|
| Ekvatorga nisbatan joylashuvi | |
| Tropic, qutb doirasiga nisbatan joylashuvi | |
| Boshqa materiklarga nisbatan | |
| Boshqa materiklarga uzoq yaqinligi | |
| Chekka nuqtalari va koordivator | |

Bu shuni ko'rsaadiki, o'quvchilar har hil mashq topshiriqlarni bajarishlari va geografik o'rnini mustaqil bilib olishga qulay imkoniyatdir. Natijada ular geogrfik joylashuvidan turli tomonlarini ochib beradigan bo'ladi.

Agar o'quvchilar bu vazifani o'qituvchi yordamisiz bajara olsalar mavzuvi yahshi o'rganganidan dalolat beradi.

Geografiyadan amaliy mashg'ulotlar daftari o'quvchilarga raqamli ko'rsatgichlarni qiyoslovchi jadvallarning borligi va undan foydalanish ko'nikmalarni shakllantirishda ahamiyatlidir.

Masalan: materiklar geografiyasida o'quvchilar mustaqil ravishda quyidagi jadvallardan foydalanishni o'rganadilar.

1.2-jadval

<table>
<tr><th>Mashq bajarilgan sana</th><th>To'g'ri topilgan topilmalar soni</th><th>Topilmalarni umumiy soni</th><th>Yakuniy baho</th></tr>
<tr><td></td><td></td><td rowspan="3"></td><td rowspan="3"></td></tr>
<tr><td></td><td></td></tr>
<tr><td></td><td></td></tr>
</table>

Geografiyadan amaliy mashg'ulot daftari bilan ishashda eng asosiy etiborni ularning mustaqil ishlay olish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratish darkor.

Ularni o'qitish usullarini o'quvchilarga eslatma sifatida amaliy mashg'ulot daftariga yozib qo'yilgan. Geografiyadan amaliy mashg'ulot daftari bilan ishlash ko'nikmasi butun umr saqlanib qoladi.

Bu amaliy mashg'ulot daftari bilan ishlash o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilimlar hajmi va meyorni belgilaydi. Bundan tashqari o'quvchilarni bilim olishga bo'lgan havslarini oshiradi. Xulosa qilib aytish kerakki, bu amaliy mashg'ulot daftari bilan ishlash quyidagi pedogogik talablarga javob berishi kerak.

1. Har bir o'quvchida amaliy mashg'ulot daftari bo'lishi kerak
2. O'quvchilar geografiyadan amaliy mashg'ulot daftar ustida ishlaganda hamma narsani yozishga intilmasdan balki eng asosiy tushunchalarni

bilishga harakat qilishlari kerak

3. O’qituvchi o’quvchilarga amaliy mashg’ulot daftaridan qanday foydalanishni izchillik bilan o’rgatishi kerak
4. O’qituvchi amaliy mashg’ulot daftarida berilgan savol va topshiriqlarni bajarib kelish yo’llarini o’rgatish zarur
5. Geografiyadan amaliy mashg’ulot daftari bilan ishlashning muhim elementlaridan biri, o’quvchilarni uyda ishlashi uchun beriladigan vazifalarni o’rgatidir.

Binobarin o’qituvchi, o’quvchilarning bilim va malakalarini etiborga olsa ularning bilim va malakalarini oshib borishiga hizmat qilishi lozim

O’zbek tilida stabil darsliklar vujudga kelgunga (1936yil) qadar geografiya daftari faqt geografik ma’lumotlarni yozish maqsadida егеши kelingan. O’quvchilar geografik qonuniyatlar , termin, nomi va raqamlarni daftarlariga yozib borar ekanlar, bu ularning xotiralarida ham o’rnashib qoladi. O’quvchilar geografiyadan amaliy mashg’ulot daftariga tabiatdagi kuzatish natijalarini, chiqarilgan xulosalarini yozib boradilar, bundan tashqari sxema va jadvallarni grafiklarni to’ldirib boradilar.

Geografiyadan amaliy mashg’ulot daftari o’quvchilar tamonidan o’zlashtirilgan malumotlarni mustahkamlaydi. Darsning oldingi bilimlarini kengaytiradi, chuqurlashtiradi va yanada aniqlashtiradi.

O’quvchilarda mahsus geografik ko’nikma va malakalar hosil qilishga yordam beradi. Ta’limning ko’rgazmali va qiziqarli bo’lishiga imkon beradi.

O’qituvchi tamonidan berilgan vazifa va topshiriqlarni sinfda hamda uyda bajarishni osonlashtiradi, o’quvchilarning geografik sovodhonligini oshiradi. O’quvchilarning o’z ishlariga muhabbat va masuliyat bilan qarashga o’rganadi. O’quvchilar aniq, uzoq vaqt esda qolishi zarur bo’lgan ma’lumotlarni, raqamlarni daftarlariga yozib oladilar.

Fan yangiliklari va boshqa o’zgarishlarni darslikda o’z vaqtida aks ettirish imkoniyati yo’q. Binobarin, o’quvchilar darslikda berilmagan va o’qituvchi tamonidan qo’shimcha qilingan ma’lumotlarni daftarlariga yozib borishlari kerak.

O’lkashunoslikka doir ayrim ma’lumotlarni daftarga yozib qo’yish bilan o’quvchilar o’z respublkasi geografiyasining puhtaroq o’rganish va uni boshqa hududlar bilan taqqoslay olish imkoniyatiga ega bo’ladilar. O’quvchilar darslik tekisi bilan mustaqil ish olib borganlarida o’sha testni o’rganish yuzasidan tuziladigan planni ham daftarga yozib qo’yadilar.

Masalan: o’qituvchi o’quvchilarga materiklar geografiyasi darsligidan Afrika “savanna zo’nasi” ni o’rganib planni tuzib chiqishni tavsiya etadi. Plan taxminan quyidagicha tuzilishi mumkin:

1. Savannalarning tarqalgan joylari;
2. Savanna zonasining o’ziga hoz xususiyatlari;
3. Tuprog’i, o’simliklari, hayvonot dunyosi;
4. Aholisining asosiy mashg’uloti;

Darslik tekisti asosida to’ldiriladigan jadvallar ham daftarga chizilib, grafalar tegishli raqam va ma’lumotlar bilan to’ldiriladi. Ba’zan darslik tekistlari oxirida beriladigan mashq va topshiriqlarga yozma javob berishga to’g’ri keladi. Bunday holda savol va topshiriqlar daftarga ko’chiriladi va ularga yozma javob beriladi. O’quvchilarga qiziqarli hodisa va obektlar haqida qo’shimcha adabiyotlar o’qishni tavsiya etilganda, ular adabiyot va muallifning nomini geografiyadan amaliy mashg’ulot daftarlariga yozib qo’yadolar.

Geografiyadan amaliy mashg’ulot daftariga ayrim yangi terminlar nomlariga izoh berib yozib boriladi. Masalan: aytaylik “yer yuzi ” – o’rab turgan havo qatlami; “qo’ltiq” – okean va dengizlarning quruqlik ichiga yorib kirgan qismi; “Saxroi kabir” – katta gul; “Xuanxe” – sariq daryo; “Pekin” – shimoliy poytaxt; “Missisipi” – katta daryo; “Tyanshan” – osmon barobar tog’ va boshqalar. Raqamlarni hisoblash, tahlil qilish va hulosalarni chiqarish maqsadida daftarga yozdirib boriladi. Masalan: 6-sinfda sutkaning o’rtacha temperaturasini toppish uchun quyidagi raqamlar berilishi mumkin. Soat 1da +10C , soat 7da +8C, soat 13da +24C, soat 19da +14C sutkaning o’rtacha temperaturasini hisoblang. O’quvchilar bu raqamlarni daftarlariga yozib olib o’rtacha hisobni chi8qaradilar. Bu haroratlar yig’indisi hisoblanib ya’ni 10+8+24+14=56   56:4=14 sutkaning

o’rtacha temperaturasi +14C bo’lgan.

Geogradiyadan amaliy mashg’ulot daftariga har qaysi tema yuzasidan karta – sxemalar , masalan: Materiklarni geografik o’rganish yer yuzasi foydali qazilmalari, izoterma va yog’inlari, daryo va ko’llari, tuproq, o’simlik va hayvonot dunyosiga doir karta – sxemalar ishlab bersalar, bunday daftarlar ajoyib qo’llanmaga  aylanishi mumkin. Amaliy mashg’ulot daftarida tuzilgan karta – sxemalar oddiy usullarda va sxematik tarzda bajariladigan bo’lgani uchun, o’quvchilar qiynalmaydilar. Aksincha, ularni havas va qiziqish bilan bajaradilar.

Geografiyada amaliy mashg’ulot daftarida tekiskar qisqa va tushunarli qilib yozilishi, grafiki va sxemalar esa aniq va to’g’ri ishlanishi kerak.

Katakli qog’ozga rasm solish, jadval va grafiklar chizish oson bo’lganligini hisobga olgan holda geografiyadan amaliy mashg’ulot daftari katakli bo’lgani ma’qul. O’qituvchilar amaliy mashg’ulot daftarlarini tekshirib, baho qo’yib borishi kerak. Namunali kutilgan amaliy mashg’ulot daftarlarini o’quv yili oxirida ko’rgazmaga qo’yish mumkin.

Shunday qilib geografiyadan amaliy mashg’ulot daftari bilan ishlash turli xil usullar yordamida o’qitish jarayonining barcha bosqichlarida materialni o’zlashtirishning, bilimlarini mustahkamlash, o’zlashtirish darajasini tekshirishda, mustaqil bilim egallash ko’nikmasini shakillantirishdagi ro’li kattadir.

# II Bob. Geografiyadan amaliy mashg'ulot daftarining tuzilishi va undan darslarida foydalanish



## Geografik qobiq komponentlari.

## 2.1.Litosfera va uning tuzilishi.



**1-Mashg'ulot.**

1.Litosfera plitalari chegaralarini tutashtirib chizib chiqing.
2.Yirik litasfera plitalarini nomlarini karta sxemasiga yozing.
3.Strelkalar yordamida litasfera plitalari yo'nalishlarini ko'rsating.

**Litosfera plitalari karta sxemasi.**



-Litosfera plitalari yoriqlari chegaralari.

- Litosfera plitalari to'qnashgan chegaralri.

Litosfera plitalari harakakatining yo'nalishi.

4.Relyef deganda nimani tushinasi?________________________________________________________

________________________________________________________

______

5.Yer yuzida qanday asosiy relyef shakllari tarqalgan?________________________________________________________

________________________________________________________

_____

6.Okean tubi relyefi qanday hosil bo’ladi va okean tubi relyefi qanday tuzilishga ega?________________________________________________________

________________________________________________________

________________________________________________________

________

7.Jadvalni to’ldiring.

| Okean tubi reylef shakllari nomi. | Chuqurligi. |
|---|---|
| 1.Shelf | 200 m gacha. |
| 2. | |
| 3 | |
| 4 | |

O’qituvchiga amaliy mashg’ulot daftaringizni berishdan oldin yozgan ishlaringizni yana bir bor diqqat bilan o’qib chiqing.

Baho: ______

# Gidrasfera. Uning tarkibiy qisimlari.

**2- Mashg’ulot.**



1.Gidrasfera nima?________________________________________________________

________________________________________________________

________________________________________________________

_________

2.Gidrasferaning tarkibiy qisimlariga nimalar

kiradi?____________________________________________________________
______________________________________________________________
______________________________________________________________
________

3.Okean suvlarining asosiy xususiyatlarini yozing?__________________________________________________________
______________________________________________________________
______________________________________________________________
________

4.Daryolarning zichligi va ser suvligi nimaga bog'liq?__________________________________________________________
______________________________________________________________
______________________________________________________________
________

5.Ko'llarning hosil bo'lishiga ko'ra turlarini yozing?__________________________________________________________
______________________________________________________________
____



**1.TOPISHMOQ.**

Kelar baland tog'lardan
juda ham yiroqlardan
giyoh bitmas bepayon
sahrolarga berar jon

**Baho: ___________**

# Atmasfera. Yerning iqlim mintaqalari .

**3-Mashg'ulot**



1.Atmasfera qanday qobiq?__________________________________________________________
______________________________________________________________
_____ 2.Atmasferaning qanday qatlamlari mavjud?__________________________________________________________
______________________________________________________________
______

3.Jadvalni to'ldiring .

**Atmasferaning qatlami tuzilishi.**

| Atmosfera qatlamlari nomi. | Chegarasi.(qalinligi). | Asosiy xususiyatlari. |
|---|---|---|
| 1Troposfera. | Ekvatorda 17 km,qutbda 8-9 km | Yog'inlar, shamollar bo'ladi. |

| | | |
|---|---|---|
| | | |
| | | |
| | | |

**4-Mashg'ulot.**

1.Iqlim hosil qiluvchi omillarni yozing?_______________________________________________________________________________________________________________

2.Dengiz havo massasi va kantinentlar havo massalalarining xususiyatlarining ayting?______________________________________________________________________________________________________________________________________

3.Iqlim mintaqalari karta sxemasiga iqlim mintaqalarining chegaralarini o'tiring va iqlim mintaqasi nomlarini yozing (Har hil rangda).

**Iqlim mintaqalari karta sxemasi.**




**4.Xulosa qiling.**

a) Qaysi materik (yoki materiklar) eng issiq va nega?

______________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________

b) Qaysi materik (yoki materiklar ) eng sovuq hisoblanadi va nima uchun?______________________________________________________________
__________________________________________________________________
_____

v) Qaysi okean (yoki okeanlar) eng issiq va nega?_______________________________________________________________
__________________________________________________________________
_____

g) Qaysi okean eng sovuq va nega?_______________________________________________________________
__________________________________________________________________
_____

**5-Mashg'ulot.**

1. Iqlim mintaqalari qanday tarkib topadi?_____________________________________________________________
__________________________________________________________________
______

2. Asosiy va oraliq iqlim mintaqalariga izoh bering?
__________________________________________________________________
__________________________________________________________________
__________________________________________________________________
_________

3.Jadvalni to'ldiring.

**Oraliq iqlim mintaqalari.**

| Oraliq iqlim mintaqalar nomi. | Mintaqada hukmron havo massalari va mavsumiy farqlar. | |
|---|---|---|
| | Yoz | Qish |
| Subekvatorial | | |
| Subtropik | | |
| Subarktika(Subantarktida) | | |

4.Karta sxemaga asosiy iqlim mintaqalarini alohida ranglar bilan belgilang va nomlarini yozing?
5.Oraliq iqlim mintaqalarini esa faqat nomlarini yozib chiqing?

**Iqlim mintaqalari karta sxemasi.**




**Asosiy iqlim mintaqalari.**

| |
|---|
| |
| |
| |
| |

**Oraliq iqlim mintaqalari.**

| |
|---|
| |
| |
| |
| |



# Tabiat komplekslari ularning almashinishi va zonalligi.



**6-Mashg'ulot.**

1.Tabiat kompleksi deganda nimani tushinasiz?__________________________________________________

______________________________________________________________

______________________________________________________________

__________

2 Qanday sabablarga ko'ra tabiat zonalari hosil bo'ladi?____________________________________________________________
____________________________________________________________
____________________________________________________________
__________

3.Dunyo okeanida nechta tabiat mintaqasi ajratilgan va ular qaysilar?____________________________________________________________
____________________________________________________________
____________________________________________________________
__________

4.Iqlim mintaqalari bo'yicha tabiat zonalarini yozib chiqing?____________________________________________________________
____________________________________________________________
____________________________________________________________
__________

5.Tabiat konpanentlari deganda nimani tushinasiz?____________________________________________________________
____________________________________________________________
____________________________________________________________
__________

Eslatma:

Tog'ga ko'tarilgan sari har 1 kmda harorat 6 $^{0}$C ga pasayadi.

**Baho:** __________

**7-Mashg'ulot.**

Rasmdan foydalanib geografik zonalarni guruhlashtiring.

## GEOGRAFIK ZONALIK.




a) Kenglik zonalar nomlarini yozing?_______________________________________________________________
_____________________________________________________________________
______ b) Balandlik mintaqalar nomlarini yozing?_______________________________________________________________
_____________________________________________________________________
______
v) Balandlik mintaqalar soni va tarkibi qanday sabablarga bog'liq holda paydo bo'ladi?_______________________________________________________________
_____________________________________________________________________
______



2.Topishmoq.

Finchadan o'girsak,
"O'rmonsiz" demak,
Namlik xo'p yetarli.
Issiqlik kerak.



**Baho:** ______

# Okeanlar tabiiy geografiyasi.

**Dunyo okeani qismlari va ocean tubi relyefi.**

**7-Mashg'ulot.**

1.Karta sxemada okeanlar chegaralarini chizib chiqing?

2.Okeanlar nomini yozing ?







1.Dunyo okeani qanday qismlardan iborat?____________________________________________________________

____________________________________________________________________

______ 2.Okean tubida qanday relyef shakllari mavjud?____________________________________________________________

____________________________________________________________________

_______3.Okean suvlarining sho’rligi qanday aniqlanadi?__________________________________________________________

____________________________________________________________________

______

4.Dunyo okeanining qaysi kengliklarida sho’rlik yuqori bo’ladi va nega?

____________________________________________________________________

____________________________________________________________________

_______

5.Iliq va sovuq oqimlar qanday paydo bo’ladi?____________________________________________________________

____________________________________________________________________

______6.Dunyo okeanining asosiy oqimlari qaysi?____________________________________________________________

____________________________________________________________________

_______

7.Okean suvlarida qalqish hodisasi qanday hosil bo’ladi?____________________________________________________________

____________________________________________________________________

______8.Okeandagi eng tez oqim nomini yozing?________________________________________________________________
______________________________________________________________________
______



3.Topishmoq
Yelkaga osib yukni
Suratga olib ko'kni
Orol yasar,o'rkach tog',
Bog'bonsiz yaratar bog'.



**Baho:_____**

**8-Mashg'ulot**



1.Tinch okeanda qanday oqimlar bor?________________________________________________________________
______________________________________________________________________
______

2.Magellan unga nega ''Tinch okean ''deb nom bergan?________________________________________________________________
______________________________________________________________________
______3.Atlasdan foydalangan holda Tinch okeandagi suv oqimlarini chizing va nomlarni yozing?________________________________________________________________
______________________________________________________________________
______

4.Atlantika okeanining asosiy xususiyatlarini yozing?________________________________________________________________
______________________________________________________________________
______5.Atlantika okeanidagi suv oqimlarini yuqoridagi karta sxemaga yozing?

**9-Mashg'ulot.**

1.Atlantika okeanini qaysi materiklar o'rab turadi?________________________________________________________________
______________________________________________________________________
______

2.Mashg'ulotdagi karta sxemaga Atlantika ocean tubi relyefini tushiring? Hind oceani tubi relyeftini yuqoridagi karta sxemaga tushiring? Hind okeani qaysi materklar oralig'ida

joylshgan?____________________________________________________________

______________________________________________________________________

______3.Shimoliy Muz okeani qaysi materiklar oralig'ida joylashgan?_____________________________________________________________

______________________________________________________________________

______

4. Shimoliy Muz okeanida tabiiy boyliklar mavjudmi bo'lsa qaysilar?_____________________________________________________________

______________________________________________________________________

______5.Shimoliy Muz okeani tubi relyefi qanday?

______________________________________________________________________

______________________________________________________________________

_______

6. Okeanda qanday tabiat mintaqalari mavjud?_____________________________________________________________

______________________________________________________________________

_______

7.Qaysi okean organizimlarga eng kambag'al hisoblanadi va nima uchun?_____________________________________________________________

______________________________________________________________________

______



O'qituvchiga amaliy mashg'ulot daftarini berishdan oldin yozgan ishlaringizni yana bir bor diqqat bilan o'qib chiqing!





**Baho:_______**



# Afrika materigi.

Materiklarni geografik joylashishini o'rganamiz Materiklarni geografik joylashishini aniqlashda va relyef tuzilishini aniqlashda mavjud ma'lumotlardan foydalanamiz.

**10-Mashg'ulot.**

Atlas va kartdan foydalangan holda Afrikaning geografik joylashishini aniqlang?______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
_________



Eslatma.

Avalam bor materikning tabiiy geografik joylashishini bilish uchun kerak :
1.Geografik koordinatasi aniqlanadi,
2.Uning holati boshqa materiklar va yirik orollar,okeanlarga dengizlar va yirik bo'g'ozlarga nisbatan joylashishi o'rganiladi.

a)Atlas va kartadan foydalanib Afrikaning chetki g'arbiy va sharqiy nuqtalarini aniqlab yozing?______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
______

b)SHimoliy va janubiy chekka nuqtalarini kordinatalarini aniqlab yozing?______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
______

v)Afrikaning shimoldan janubgacha 20-meridian bo'ylab uzunligini atlas va kartadan foydalangan holda hisoblab chiqing?______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
__________

**11-Mashg'ulot.**

1.Afrikani kimlar o'rgangan?______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
_______2.Afrikaning ko'p qismini qanday relyef shakllari egallagan?______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
______ 3.Afrika iqlimi qaysi omillar ta'sirida tarib topadi?______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
_______
4.Nima uchun Afrikani eng issiq materik deymiz?______________________________________________________________________

______________________________________________________________________
_____________

5.Afrika materigi boshqa materiklar va orollarga nisbatan joylashishini misollar bilan
yozing?______________________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
_________

6.Afrika materigini okeanlar, dengizlar va yirik bo'g'ozlarga nisbatan joylanishini misollar bilan
yozing?______________________________________________________________
______________________________________________________________________
______

Jadvalni to'ldiring.

| Geografik joylashuvi | Javoblar. |
|---|---|
| Ekvatorga nisbatan joylashuvi. | |
| Tropik,qutb doirasiga nisbatan joylashuvi | |
| Boshqa materiklarga nisbatan joylashuvi. | |
| Chekka nuqtalari va koordinatalari. | |

**Afrika materigi karta sxemasi.**








**Baho: __________**

**12-Mashg'ulot.**

1.Yozuvsiz kartaga Afrikaning yirik relyef shakllarini tushiring?

2.Afrika qanday foydali qazilmalarga boy ularni karta sxemaga tushiring?

3.Afrikaning ichki suvlarini karta sxemaga tushiring va quyidagi jadvalni to'ldiring.

| Daryo nomi | Uzunligi. |
|---|---|
| 1.Nil | |

| | |
|---|---|
| | |
| 2.Kongo | |
| 3.Zambezi | |
| | |
| | |

4.Afrikaning ichki suvlarini qanday havzalarga bo'lish mumkin?________________________________________________

5.Afrikada qanday milliy bog'lar bor?________________________________________________

6.Afrikada qanday qo'riqxonalar bor?________________________________________________

7.Sharshara deganda nimani tushunasiz va Afrikada qanday sharsharalar bor?________________________________________________

8.Afrikaning qaysi hududlarida yer osti suvlari topilgan?________________________________________________



**Baho: ______**

# Afrikaning tabiat zonalari va tabiiy geografik o'lkalari.

**13 - Mashg'ulot.**

1.Afrika materigida qanday tabiat zonalari bor?________________________________________________

2.Ekvatorial o'rmonlar va savannalar Afrikaning qayerlarini egallagan?________________________________________________

3.Nega ekvatorial o'rmonlar zonasida qizil –sariq ferralit tuproqlar hosil bo'ladi?________________________________________________________________
____________________________________________________________________
_____

4.Ekvatorial o'rmonlarning asosiy xususiyati nimalardan iborat?_________________________________________________________________
____________________________________________________________________
_____

5.Savannalarning asosiy xususiyati nimalardan iborat?_________________________________________________________________
____________________________________________________________________
_____

6.Afrikaning tabiat zonalarini yozuvsiz xaritaga tushiring?
7.Mavzuga tegishli milliy bog' va qo'riqxonalarini yuqorida berilgan kartasxemaga tushiring?

**Baho: _______**

# Tropik cho'llar va subtropiklar tabiati.

**14 - Mashg'ulot.**

1.Tropik cho'llar tabiatining o'ziga xos xususiyati nimadan iborat?_________________________________________________________________
____________________________________________________________________
_____

2.Tropik cho'llarda qanday tuproqlar tarqalgan?_____________________________________________________________
____________________________________________________________________
_____

3.Afrikaning tropik cho'llarida hayvonlar va aholi uchun suv o'rnida nima iste'mol qilinadi?______________________________________________________________
____________________________________________________________________
______

4. Tropik cho'llarda qanday hayvonlar yashaydi?______________________________________________________________
____________________________________________________________________
______

5.Subtropiklar tabiati qaysi omillar ta'sirida shakllanadi?__________________________________________________________
____________________________________________________________________
______

6.Sahroi Kabirning tabiat komplekslarini yuqorida berilgan karta sxemaga tushiring va tavsif bering?_______________________________________________________________
____________________________________________________________________
____________________________________________________________________

__________



**Baho: ______**

# Tabiiy-geografik  o'lkalari.  Aholisi.

**15-Mashg'ulot.**

1.Afrika  qanday tabiiy- geografik o'lkalarga bo'lingan?_______________________________________________
_______________________________________________________________
______

2.O'lkalar qaysi xususiyatlari bilan bir-birdan farq qiladi?_______________________________________________
_______________________________________________________________
______

3. Tabiiy-geografik o'lkalarni       -betdagi   karta sxemaga turli xil ranglar bilan tushiring?

4. O'lkalarni  bir-biriga qiyoslang?_______________________________________________
_______________________________________________________________
______

5.Afrikada nega  milliy  bog'lar  va qo'riqxonalar ko'p?_______________________________________________
_______________________________________________________________
_______________________________________________________________
_________

6. Antropogen  landshaftlar  qayerlarda  ko'p tarqalgan?_______________________________________________
_______________________________________________________________
______

7.Afrikada  qancha  mamlakat   mavjud  va  bu materikda  qaysi irqga  mansub vakillar yashaydi?_______________________________________________
_______________________________________________________________
_______________________________________________________________
_______________________________________________________________
_______________________________________________________________
_________________



**4.Topishmoq**

**Bu yer eng issiq, sernam**
**Bo'lmaydi hatto qish ham**
**Se-se pashshasi uchar**
**CHuqur uzun ko'l uchrar.**



**Baho: ________**

# Avstraliya materigi.

**16-Mashg'ulot.**

1.Atlas va kartadan foydalanib Avstraliya va Afrikaning geografik joylashishini taqqoslang?______________________________________________________________

____________________________________________________________________________

____________________________________________________________________________

____________________________________________________________________________

____________________________________________________________________________




________________

2. Avstraliya cho'llari bilan Afrika cho'llarini taqqoslang? (Ularning o'xshash va farqlarini
tushuntiring.)___________________________________________________________

______________________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________________
__________

3. Avstraliya va Afrika tog'lari va ichki suvlarini taqqoslang?__________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________________
_________

**Baho:____________**

**17-Mashg'ulot.**

1.Atlasdan foydalanmagan holda Avstraliya karta sxemasiga Avstraliyaning sizga ma'lum bo'lgan geografik ob'ektlarini belgilang?(Bajarish vaqti 3 minut).

**Avstraliya materigi karta sxemasi.**




2.Karta sxemaga yozilgan geografik ob'ektlarni sanab jadvalga kiriting?

| Mashq bajarilgan sana | Toponimlarning umumiy soni | To'g'ri topilgan toponimlar soni. | Yakuniy baho. |
|---|---|---|---|
| | | | |

**18-Mashg'ulot.**

1.Atlasdan foydalangan holda Avstraliya va Afrika relyefini taqqoslang?____________________________________________
________________________________________________________
________________________________________________________
________________________________________________________

2.Atlasdan foydalanib Avstraliya va Afrikaning litosfera plitasi sistemasini taqqoslang?____________________________________________
________________________________________________________
________________________________________________________



O'qituvchiga amaliy mashg'ulot daftarini berishdan oldin yozgan ishlaringizni yana bir bor diqqat bilan o'qib chiqing!

**Baho:_______**

**19-Mashg'ulot.**

1.Karta sxemaga Avstraliayning chekka nuqtalarini yozib chiqing?

2. Avstraliayni o'rganishga kimlar ishtirok etgan?____________________________________________
________________________________________________________
________________________________________________________
_________

3.Avsrtaliya relyef tuzilshiga ko'ra necha qismga bo'linadi?_____________________________________________
________________________________________________________
________________________________________________________
__________

4.Qaysi foydali qazilmalar boy va qaysi qazilmalar bo'yicha dunyoda yetakchi?____________________________________________
________________________________________________________
________________________________________________________
________________________________________________________
____________

**20-Mashg'ulot.**

1. Avstraliya iqlimi bilan Afrika iqlimini taqqoslang?____________________________________________
   ________________________________________________________
   ________________________________________________________

______________________________________________________________________________
______________

2. Avstraliya qit'asida qanday iqlim mintaqalari shakllangan?_____________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________
3. Avstraliya ichki suvlarini karta sxemaga tushiring?
4. Avstraliyada qanday tabiat zonalari mavjud?__________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
___________
5. Afrika va Avstraliya tabiat zonalarining o'xshash va farqlari nimalardan iborat?___________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
__________
6. Jadvalni to'ldiring.

| Geografik joylashuvi | Javoblar |
|---|---|
| Ekvatorga nisbatan joylashuvi. | |
| Tropik,qutb doirasiga nisbatan joylashuvi | |
| Boshqa materiklarga nisbatan joylashuvi. | |
| Chekka nuqtalari va koordinatalari. | |

**Baho:_______**

**21-Mashg'ulot.**

1.Avstraliya iqlim mintaqalarini har xil ranglar bilan -betdagi karta sxemaga tushiring?

2.Avstraliyada qanday qo'riqxonalar mavjud?_______________________________________________________________________
____________________________________________________________________________________
____________________________________________________________________________________
___________3.Avtraliyada qanday milliy bog'lar bor?________________________________________________________________________________
____________________________________________________________________________________
____________________________________________________________________________________
__________

4.Avstraliyaning xaltali hayvonlari haqida nimalarni bilasiz?____________________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
__________

5.Avstraliya materigini okeanlar,dengizlar va bo'g'ozlarga nisbatan joylashishini misollar bilan yozing?____________________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
_________

6.Avstraliya karta sxemasiga chekka dengizlari,orollarini qo'ltiq va bo'g'ozlarini tushiring?__________________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
__________

7.Avstraliyani $30^0$ janubiy kenglik bo'ylab iqlim o'zgarish shart-sharoitini kuzating.Buning uchun bevosita xaritadan foydalanamiz.

a)Ichki iqlim mintaqada iqlimning har xillik sababini tushuntiring? Quyidagi rasmni tushunarli qiling? Sharqiy Avstraliyaning yog'ingarchiligi haqida ma'lumot bering?____________________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
__________

b)Aholi va dunyo aholi zichligi kartasida foydalanib tropik iqlim mintaqasida aholi joylashishi haqida xulosa qiling?____________________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________

**Baho:_______**

# Okeaniya.

**22-Mashg'ulot.**

1.Okeaniyaning asosiy xususiyati nimalardan iborat?____________________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
_________

2. Okeaniyaning geografik o'rniga ta'rif bering?________________________________________________________________
______________________________________________________________________
______

3. Okeaniyani o'rganishda kimlarni xizmatlari katta?__________________________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
________

4.Orollarning geologic tarixi va qanday jinslardan tuzilganligiga ko'ra qanday guruhlarga bo'lish mumkin?______________________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
________

5. Okeaniyada qanday iqlim mintaqalari shakllangan?__________________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
________

6. Okeaniya orollari kelib chiqishiga ko'ra qanday to'plam orollarga ajratiladi?_____________________________________________________________
______________________________________________________________________
______



**5. Topishmoq.**

**Orollar marjon-marjon , daraxtlarda qovun, non.**
**Yashar "Jannat qushlari", kuylashga yo'q xushlari.**
**Toping yashirdim joyni , mo'jiza, sirga boyni.**

**Baho:________**

# Antraktida.

**23-Mashg'ulot.**

1.Atlasdan foydalanmagan holda Antarktidani sizga ma'lum bo'lgan ob'ektlarini karta sxemaga yozing?(Bajarish vaqti 3 minut).

**Antarktida materigi karta sxemasi.**




Karta sxemaga yozilgan geografik ob'ektlarni sanab jadvalga kiriting?

| Mashq bajarilgan sana | Toponimlarning umumiy soni | To'g'ri topilgan toponimlar soni. | Yakuniy baho. |
|---|---|---|---|
| | | | |

**24-Mashg'ulot.**

1.Haqiqatligini fikr mulohaza qilib asoslab bering.

"Antarktida – yerning eng sovuq materigi."

1)_________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________

2)___________________________________________________________________________________

**25-Mashg'ulot.**

1. Antarktidaning asosiy xususiyati nimalardan iborat?________________________________________

____________________________________________________________________________________

____________________________________________________________________________________

__________2. Antarktidani  Arktika  suvlariga ta’sirini yozing?____________________________________________________________________________

____________________________________________________________________________________

______

3. Antarktidani  qaysi okean suvlari o’rab olgan?______________________________________________________________________________

____________________________________________________________________________________

____________________________________________________________________________________

__________

4. Antarktida r elyefini yuqoridagi  karta sxemaga tushiring?

**26-Mashg’ulot.**

1. Antarktidaning  iqlimiga tavsif bering?____________________________________________________________________________

____________________________________________________________________________________

_______2.Arktikada nechta iqlim mintaqasi shakllangan va ular qaysilar?____________________________________________________________________________

____________________________________________________________________________________

____________________________________________________________________________________

__________3.Antarktidada  yoz va qish oylarida qanday o’zgarishlar bo’ladi?___________________________________________________________________________

____________________________________________________________________________________

____________________________________________________________________________________

__________

4. Antarktidada pingvinlarning qaysi turlari ko’p uchraydi?_________________________________________________________________________

____________________________________________________________________________________

_______

5.Atlasdagi Antarktida iqlim xaritasini   -betdagi karta sxemaga tushiring?

6.Atlasdan foydalanib Antarktida materigidagi ilmiy stansiyalarni yozing?____________________________________________________________________________

____________________________________________________________________________________

____________________________________________________________________________________

____________________________________________________________________________________

______________



6. Topishmoq.

Qutbning dugonasi,

Aysbergning onasi.

O’ragan oppoq choyshab,

Yerning “Sovuq xonasi”.

Arktikaning qarshisi,

Siz topingchi yaxshisi.



O’qituvchiga amaliy mashg’ulot daftarini berishdan oldin yozgan ishlaringizni yana bir bor diqqat bilan o’qib chiqing!

**Baho:____________**

# Janubiy Amerika materigi.

**27-Mashg’ulot.**

1.Karta va atlasdan foydalanib Janubiy Amerika va Avstraliyani Geografik joylashishini taqqoslang?________________________________________________________
________________________________________________________________
________________________________________________________________
________________________________________________________________




__________

2.Bu materikning iqliminning xilma-xilligiga qaysi omillar ta’sir

qiladi?______________________________________________________________
__
______________________________________________________________________
___3.Janubiy  Amerikaning  asosiy  xususiyatlari nimalardan iborat?______________________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
________

4.Janubiy  Amerikada  qanday foydali qazilmalar mavjud?___________________________________________________________
______________________________________________________________________
______

**28-Mashg'ulot.**

1.Kartadan foydalanmagan holda quyidagi karta  sxemaga  Janubiy  Amerika materigining  sizga ma'lum bo'lgan ob'ektlarini belgilang?(Bajarish vaqti 3minut).

Janubiy Amerika karta sxemasi.



Kartada  belgilagan ob'ektlarni sanang va ma'lumotlarni jadvalga kiriting?

| Mashq bajarilgan sana | Toponimlarning umumiy soni | To'g'ri topilgan toponimlar soni. | Yakuniy baho. |
|---|---|---|---|
| | | | |

**29-Mashg'ulot.**

Kartadan foydalangan holda:

1.Avstraliya va Janubiy Amerika materigining relefini taqqoslang?______________________________________________________________
______________________________________________________________
______________________________________________________________
_________

2.Materikning yirik relyef shakllarini tartib bilan joylashtiring va litosfera plitalari sistemasidagi xolati haqida xulosa qiling?______________________________________________________________
______________________________________________________________
______________________________________________________________
_________3.Avstraliya va Janubiy Amerikaning iqlim mintaqalarini taqqoslang?______________________________________________________________
______________________________________________________________
______________________________________________________________
_________

**Baho:______**

**30-Mashg'ulot.**

1.Janubiy Amerikaning chekka dengizlari va ichki suvlarini – betdagi  karta sxemaga tushiring?

2. Janubiy Amerikaning iqlim mintaqalari nechta va qanday iqlim mintaqalari mavjud?______________________________________________________________
______________________________________________________________
______________________________________________________________
______________________________________________________________
______________

3. Janubiy Amerikaning qaysi daryolari Atlantika okeani havzasiga quyadi?______________________________________________________________
______________________________________________________________
______________________________________________________________

________

4. Janubiy Amerikaning iqlim kartasidan foydalangan holda fikr mulohaza qilib keltirilgan dalillar to'g'ri ekanligini asoslab bering?

1)"Janubiy Amerika –Yerning eng nam materigi."________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________

2)Materikdagi zonalar passat shamoli harakatida vujudga keladi?________________________________________________________________________________________________________________________________________________

3)Braziliya iliq oqimi materikning sharqiy qismidan esganligi________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________

**31-Mashg'ulot.**

1. Janubiy Amerika materigi nechta tabiiy-geografik o'lkalarga ajratiladi va ular qaysilar?____________________________________________________________________________________________________________________________________________________

2. Janubiy Amerika yerning eng nam materigi buning asosiy sababini tushuntiring?____________________________________________________________________________________________________________________________________________________

Yerning yirik relyef shakllarining joylashish qonuniyatlarini o'rganamiz.

**32-Mashg'ulot.**

Janubiy Amerika materigini $10^0$ janubiy kenglik bo'yicha yer usti tuzilishi,yirik relyef shakllarini va tarqalgan fodali qazilmalarni qonuniyat bo'ylab joylashishini analiz qiling? Buning uchun atlas va kartadan foydalaning.________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________

a).Nomi mahalliy inklar tilida “Mis ” deb ataladigan tog’ nomi?______________________________________________________

b).Oltin va olmosga boy tog’lik nomini yozing?__________________________________________________________

______________________________________________________________

________________________________________________________

s).Janubiy Amerika materigida neftga boy bo’lgan tekislik qaysi?

______________________________________________________________

______________________________________________________________

______

d).Janubiy Amerika joylashgan eng baland ko’l qaysi?

______________________________________________________________

______________________________________________________________

______

e).Eng yirtqich balig’ini nomini yozing?__________________________________________________________

__



7.Topishmoq.

Respublikamizning katta bir shahri
Nomining boshdan uch harfin
Topasan sayyoraning baland bir tog’in
Tarjimasi biror metalning nomin.



**Baho:__________**

**Shimoliy Amerika materigi.**

**33-Mashg’ulot.**

Shimoliy Amerika materigining geografik joylashishi va o’ziga xos xususiyatlarini yozing quyidagi gapni davom qildiring.

Shimoliy Amerika shimoldan janubgacha 7500 km ga cho’zilgan shuning uchun (jumlani davom ettiring?)________________________________________________________

______________________________________________________________

______________________________________________________________

______________________________________________________________

______________________________________________________________

______________________________________________________________

________________________________________________

**Qisqa savollarga qisqa javob yozing.**
**(Bajarish vaqti 5 minut).**

A variant.

1.Iliq oqim qaysi qo’ltiqdan boshlanadi?________________________________________

2.Dengizchilar qaysi qo’ltiqni ko’pincha ” Muz soling qop” deb ataydi?____________________________________________________________________

3.Qaysi qo’ltiq suvlari Labrador yarim orolini qirg’oqlarini yuvib turadi?____________________________________________________________________

4.Qaysi qo’ltiq Tinch okeanini bir qismi hisoblanadi?_______________________________________________________________




**Baho:__________**

**34-Mashg’ulot.**

Atlasdan foydalanmay Shimoliy Amerika materigi karta sxemasiga sizga ma’lum bo’lgan geografik ob’ekt nomlarini yozing?(Bajarish vaqti 5 minut).

**Shimoliy Amerika materigining karta sxemasi.**




Karta sxemaga yozilgan nomlarni umumiy sonini quyidagi jadvalga yozing?

| Mashq bajarilgan sana | Toponimlarning umumiy soni | To'g'ri topilgan toponimlar soni. | Yakuniy baho. |
|---|---|---|---|
| | | | |

**35-Mashg'ulot.**

Shimoliy va Janubiy Amerika materigining litosfera plitalari sistemasida geografik joylashishini taqqoslang?__________________________________________________________

______________________________________________________________________

______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
____________

**36-Mashg'ulot.**

1.Shimoliy va Janubiy Amerikaning yirik relyef shakllarini joylashishini taqqoslang?______________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
____________

2.Shimoliy Amerikaning tabiiy xaritasidagi $40^{0}$ shimoliy kenglik bo'ylab Atlantika okeanida Tinch okeaniga sayohat qiling,qanday geografik ob'ektlardan o'tishingizni yozing?



______________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
__________________________________________

**Baho:___________**

**Iqlimi va ichki suvlari.**

**37-Mashg'ulot.**

1.Shimoliy Amerika materigi iqlimiga ta'sir etuvchi omillarni yozing?_____________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______

2.Materikda nechta iqlim mintaqasi shakllangan va ular qaysilar?__________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______

3. Materikning iqlim mintaqalari nimalari bilan farqlanadi?_____________________________________________________________
______________________________________________________________________________
_______

4.Shimoliy Amerikaning ishki suvlari qancha havzaga bo'linadi?_____________________________________________________________
______________________________________________________________________________

______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
_____________

**Qisqa savollarga qisqa javob yozing.**
**(Bajarish vaqti 5 minut).**

B variant.
1.Shimoliy Amerikaning eng katta daryosini nomi?______________________________
2.Hindular tilida "serloyqa daryo" deb qaysi daryo ataladi?________________________
3. Shimoliy Amerikaning "Buyuk ko'llarsuvi"ni qaysi daryo Atlantika okeaniga olib kelib quyadi?__________________________________________________________________
4. Shimoliy Amerikaning qaysi daryo bahaybat kanyon hosil qiladi?___________________________________________________________________

**Baho:_________**

**38-Mashg'ulot.**

1.Materiklarda daryo va ko'llarning notekis taqsimlanishiga qanday omillar ta'sri etadi?__________________________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
_________

2.Avstraliya va Shimoliy Amerikaning ichki suvlarini bir-biriga taqqoslang?_____________________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
_________3.Shimoliy Amerikaning Tinch va Atlantika okeanlariga quyiladigan daryolar o'rtasida qanday o'xshashlik va farqlar mavjud?_______________________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
_____________4. Shimoliy Amerika materigida daryo oqiziqlarida tarkib topgan tekislik qaysi?__________________________________________________________________
______________________________________________________________________
_______5. Shimoliy Amerika materigida ko'hna va juda yemirilgan tog' nomini yozing?________________________________________________________________
______________________________________________________________________
______6.Neft va gaz qazib olinadigan tekislik nomi?__________________________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________

__________



O’qituvchiga amaliy mashg’ulot daftarini berishdan oldin yozgan ishlaringizni yana bir bor diqqat bilan o’qib chiqing!

**Baho:__________**

**Shimoliy Amerikaning tabiat zonalari.Balandlik mintaqalari.**



**39-Mashg’ulot.**

1.Tabiat zonalarini    -betdagi karta sxemaga tushiring?

2.Nima sababdan tabiat zonalari bir-biri bilan almashinadi?______________________________________________________________
________________________________________________________________________
________________________________________________________________________
_________

3.Materikda tabiat  zonalarining joylashishida o’ziga xos qanday xususiyatlari bor?____________________________________________________________________
________________________________________________________________________
________________________________________________________________________
________________________________________________________________________
___________

4.Shimoliy Amerikaning qaysi tabiat zonalari kenglik bo’ylab joylashgan va ular qaysilar?_________________________________________________________________
________________________________________________________________________
_____

5.Tabiiy  geografik o’lkalarini ajratishda nimalarga asoslanadoi va Shimoliy Amerika qanday tabiiy geografik o’lkalarga ajratiladi?_______________________________________________________________
________________________________________________________________________
________________________________________________________________________
________________________________________________________________________
_____________ 6. Shimoliy Amerika materigining tub joy aholisi nima deb ataladi?__________________________________________________________________





**Baho:___________**

**Yevrosiyo materigi.**

**Yevrosiyo.**

**Men eng balandman, barcha biladi,**
**Qirg'og'im to'rtala okean yuvadi,**
**Egri-bugri qirg'oqdir g'arbiy qismim,**
**Mo'jizakor asli bu mening jismim.**
**Qirrada eng kata materik o'zim,**
**Shimolni yaxshiroq ko'radi ko'zim.**
**Yevropa va osiyoni birlashtiraman,**
**Ummon tog'larini sirlashtiraman.**
**Iqlimim yeti xil go'yo kamalak,**
**Daryolar misoli sersuv jamalak.**

**40-Mashg'ulot.**

Yevrosiyo materigini Shimoliy Amerika materigi bilan taqqoslang .Ularning geografik o'rnini va qirg'oqlarini qanday farqlari borligini yozing?



2.Yevrosiyo qaysi okeanlar bilan o'ralgan ularning qaysi birini chegarasi uzoq masofaga cho'zilgan?

3"Yevrosiyo eng katta quruqlik". Yevrosiyoning rang-barang tabiatiga oid misollar keltiring?

__________

4.Yevrosiyo materigining asosiy xususiyatlarini yozing?______________________________________________________________

______________________________________________________________

______________________________________________________________

______________________________________________________________

______________________________________________________________

_______________5. Yevrosiyoning relyefi Afrika va Avstraliya relyefidan qanday xususiyatlari bilan farq qiladi?______________________________________________________________

______________________________________________________________

______________________________________________________________

______________________________________________________________

______________________________________________________________

_______________

6. Yevrosiyo materigi yer po'stining yoshi nima sababdan xilma-xil?______________________________________________________________

______________________________________________________________

______________________________________________________________

______________________________________________________________

_____________

7.Yer po'tining rivojlanish xususiyatlari tog'lar va tekisliklarning geografik joylashishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?______________________________________________________________

______________________________________________________________

______________________________________________________________

______________________________________________________________

_____________



O'qituvchiga amaliy mashg'ulot daftarini berishdan oldin yozgan ishlaringizni yana bir bor diqqat bilan o'qib chiqing!

**Baho: ______**

**41-Mashg'ulot.**

Yevrosiyoning eng yirik tekisliklarini, tog' tizmalarini va tog'liklarni Yevrosiyo materigi karta sxemasiga tushiring?

**Yevrosiyo materigi karta sxemasi.**




2.Nima uchun Sharqiy Yevropa va G’arbiy Sibir tekisliklarida yer qimirlash va vulqonlar otilishi bo’lmaydi?________________________________________________________________

____________________________________________________________________________

____________________________________________________________________________

__________3.Nima sababdan Kamchatkada,Kuril orollarida va Yaponiyada tez-tez yer qimirlab vulqonlar otilib turadi?__________________________________________________________________

____________________________________________________________________________

____________________________________________________________________________

_________

4.Magmatik va cho’kindi yo’llar bilan hosil bo’lgan foydali qazilmalarni guruhga ajratib quyidagi jadvalni to’ldiring?

| Magmatik yo’l bilan hosil bo’lgan foydali qazilmalar nomi. | Cho’kindi yo’l bilan hosil bo’lgan foydali qazilmalar. |
|---|---|
| | |
| | |

| | |
|---|---|
| | |
| | |

**Iqlimi va uning xususiyatlari.**

**42-Mashg'ulot.**

1.Yevrosiyo iqlim sharoitining kenglik bo'ylab o'zgarishiga sabab nima deb o'ylaysiz?__________________________________________________

2. Yevrosiyoning iqlimi g'arbdan sharqga nega o'zgarib boradi? (Fikringizni isbotlang.)__________________________________________________

3. Yevrosiyoning qaysi qismida qish juda sovuq bo'ladi va nega? Xaritadan materikning eng sovuq joyi Oymyakonni toping?__________________________________________________

4. Yevrosiyoning qaysi joylariga eng ko'p yog'in tushadi va Yevrosiyoning eng seryog'in joyi qayer?__________________________________________________

5.Iqlimga relyef va dengiz havo massalarining ta'sirini yozing?__________________________________________________

**Baho:____________**

**Sovuq va mo'tadil iqlim mintaqalari.**

**43-Mashg'ulot.**

1.Iqlim mintaqasi deganda nimani
tushunasiz?________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________

2. Sovuq iqlim mintaqasiga qaysi iqlim mintaqalari
kiradi?______________________________________________________________________________________________________________________________________________________________3.Mo’tadil iqlim mintaqasida iqlimning qanday tiplari
bor?______________________________________________________________________________________________________________________________________________________________

4.Sovuq va mo’tadil iqlim mintaqalarini Yevrosiyo karta sxemasiga tushiring? (Har xil ranglar
bilan).__________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________

5.Issiq iqlim mintaqalari deganda nimani
tushunasiz?______________________________________________________________________________________________________________________________________________________________

6.Subtropik iqlim mintaqasi qanday iqlim tiplariga bo’linadi va
nega?___________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________________

7.Oraliq iqlim mintaqalari qaysilar va ularga tavsif
bering?______________________________________________________________________________________________________________________

________________________________________________________________________

**Baho:____________**

**Yevrosiyoning ichki suvlari.**

**44-Mashg’ulot.**

1.Yevrosiyoning ichki suvlarini joylashish xususiyatlarini va ularning havzalarga bo’linishini
yozing?__________________________________________________________________________________________________________________

______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
_______________
2.Ko'llar kelib chiqishiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?______________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
___________________3. Yevrosiyoda daryolarning geografik tarqalishiga va joylashishiga nimalar ta'sir ko'rsatadi?_____________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
_____________
4.Materikning shimoliy qismidagi ko'llarning suvi nima sababdan chuchuk?_______________________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
_________
5. Yevrosiyoning daryo va ko'llarini -betdagi Yevrosiyo materigining karta sxemasiga tushiring?
6.Xaritadan geografik uzunlik yo'nalishida joylashgan daryolarning nomini yozing?_________________________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
_________

**Baho:__________**

**Yevrosiyo materigining tabiat zonalari va mo'tadil iqlim mintaqalaridagi tabiat zonalari.**

**45-Mashg'ulot.**

1.Arktika mintaqasining tabiat zonalari nechta va ularga tavsif bering?________________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
________________
2.Subarktika mintaqalarining tabiat zonalarining o'ziga xos xususiyatlarini jadvalda aks ettiring?

| Zona nomi | Tarqalgan tuproq | O'simlik turi | Tarqalgan |
|---|---|---|---|

| | turi | | hayvonot dunyosi. |
|---|---|---|---|
| 1.Tundra zonasi | | | |
| 2.O'rmon tundra zonasi | | | |

3.Mo'tadil mintaqaning tabiat zonalarining o'ziga xos xususiyatlarini jadvalda aks ettiring?

| Zona nomi | Tarqalgan tuproq turi | O'simlik turi | Hayvonot dunyosi |
|---|---|---|---|
| 1.Tayga zonasi | | | |
| 2.Aralash o'rmonlar zonasi | | | |
| 3.Keng bargli o'rmonlar. | | | |
| 4.O'rmon dasht va dasht zonasi | | | |
| 5.Chala cho'l zonasi | | | |
| Cho'l zonasi | | | |

4.Issiq iqlim mintaqalaridagi tabiat zonalari haqida .
1.Subtropik mintaqalarning tabiat z onalari haqidagi jadvalni to'ldiring?

| Zona nomi | Tarqalgan tuproq turi | O'simliklar nomi | Hayvonot dunyosi |
|---|---|---|---|
| 1.Subtropik o'rmonlar va butazorlar zonasi | | | |
| 2.Subtropik sernam musson o'rmonlar | | | |
| 3.Subtropik chala - cho'l va cho'l zonasi | | | |

5.Savannalar qayerlarda tarkib topadi?____________________________________________________
____________________________________________________________
____________________________________________________________
____________________________________________________________
______________

6.Tog'larda balandlik mintaqalarining ko'p yoki ozligiga sabab nima?____________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
_________________



**Baho:________________**

**Yevrosiyo hududining yirik tabiiy geografik o'lkalari.**

---

**46-Mashg'ulot.**

1.Tabiiy-geografik rayonlashtirish deganda nimani tushunasiz?_______________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
_________

2. Yevrosiyo tabiiy-geografik o'lkalarining 56 -betdagi karta sxemaga tushiring?

3Yevropa qanday tabiiy- geografik o'lkalarga bo'linadi?_________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
_____________ 4.Osiyo qanday tabiiy-georafik o'lkalarga bo'linadi?_________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
__________

5.O'rta Yevropa o'lkasini 56 -betdagi karta sxemaga alohida rang bilan tushiring?

6.Shariy Yevropa o'lkasini geografik o'rni va tabiiy sharoitiga izoh yozing?____________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________________________________________________________________
______________________

7.Sharqiy Osiyoga qayerlar

kiradi?

**Yevrosiyoning tabiiy geografik rayolari karta sxemasi.**




**47-Mashg'ulot.**

1.Markaziy Osiyo o'lkasiga qayerlar kiradi?

2.Markaziy Osiyo iqlimiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

3.Markaziy Osiyo o'lkasining asosiy relyef shakllarini yuqoridagi karta sxemaga tushiring?

4.Janubiy Osiyo o'lkasiga qayerlar kiradi.?

5.Janubiy Osiyo tabiiy geografik o'lkasining foydali qazilmalarini - betdagi karta sxemaga tushiring?

__________ 6.Himolay Hind-Gang va Hindiston yarim oroli iqlimlarini bir briga qiyoslang?____________________________________________________________

____________________________________________________________

____________________________________________________________

_________ 7.Janubi G'arbiy Osiyoga qayerlar kiradi?____________________________________________________________

____________________________________________________________

____________________________________________________________

_________

8.Janubi G'arbiy Osiyo o'lkasini yuqoridagi karta sxemaga alohida rang bilan tushiring?

16. Janubi G'arbiy Osiyo o'lkasida qanday foydali qazilmalar bor?____________________________________________________________

____________________________________________________________

____________________________________________________________

_________



O'qituvchiga amaliy mashg'ulot Daftarini berishdan oldin yozgan ishlaringizni yana bir bor diqqat bilan o'qib chiqing!

**Baho:_________**

**Dunyo aholisi va siyosiy xaritasi.**

**48-Mashg'ulot.**

1.Demograflar kimlar?____________________________________________________________

____________________________________________________________

_______

2.Qaysi materikda aholisi ko'p va nega?____________________________________________________________

____________________________________________________________

______

3. Siyosiy xarita nima?____________________________________________________________

____________________________________________________________

____________________________________________________________

__________

4.Katta yettilik davlatlarni yozing.

1.AQSH.____________________________________________________________

__

2.____________________________________________________________

__

3.____________________________________________________________
__
4.____________________________________________________________
__
5.____________________________________________________________
__
6.____________________________________________________________
__
7.____________________________________________________________
__

5.”Mitti davlatlar”ni
yozing?________________________________________________________
_______________________________________________________________
_______________________________________________________________
________

6.Dunyo siyosiy xaritasi nima uchun doimo o’zgarib
turadi?________________________________________________________
_______________________________________________________________
_______________________________________________________________
________ **Baho:________**

**Qisqa savollarga qisqa javob yozing.**

(Bajarish vaqti 10 minut).

1.Eng baland cho’qqi?_________________________________
2.Eng katta ko’l?_____________________________________
3.Eng chuqur ko’l?____________________________________
4.Eng katta materik?__________________________________________
5.Eng katta qit’a?_____________________________________________
6.Eng katta yarim orol?_________________________________________
7.Okean sathida eng past joy?____________________________________
8.Eng sho’r ko’l?_________________________ ____________________
9.Eng seryog’in joy?____________________________________________
10.Eng katta o’rmon?____________________________________________
11. Yevropaning eng baland tog’lar I qaysi?___________________________
12.Yevropaning past tog’lariga qaysilar kiradi?_________________________
13.Yer sharida qaysi eng baland tog’ “Dunyo tomi ” deb
ataladi?____________
14.Yevrosiyaning qaysi daryosi Shimoliy Muz okeani havzasiga
kiradi?_________________________________________________________
15.Chuchuk suvli ko’li qaysi?_______________________________________



O’qituvchiga amaliy mashg’ulot daftarini berishdan oldin yozgan ishlaringizni yana bir bor diqqat bilan o’qib chiqing!

**Baho:______**

**Topishmoqlar va qisqa savollarning javoblari.**

**1.Topishmoqlar javobi.**

**1. Daryo.**
**2. Tundra**
**3. Okeanlar va dengizlar.**
**4. Markaziy va shimoliy Afrika.**
**5. Okeaniya.**
**6. Antarktida**
**7. And tog'i.**

**Shimoliy Amerika materigi bo'yicha qisqa savollarning javoblari.**

**A variant.**

**1. Meksika.**
**2. Gudzon qo'ltig'i.**
**3. Meksika qo'ltig'i.**
**4. Kaliforniya qo'ltig'i.**

**B variant.**

**1. Missisipi daryosi.**
**2. Missuri.**
**3. San Lavrentiya.**
**4. Kolorado daryosi**

**Yevrosiyo bo'yicha qisqa savollarning javoblari.**

**1.Jamolungma (Everest 8848 m).**
**2. Kaspiy (371000 km$^2$).**
**3.Baykal (1620 m ).**
**4.Yevrosiyo (54 mln kv.km).**
**5.Osiyo (43.4 mln kv.km ).**
**6.Arabiston (2.7 mln.km$^2$ dan ortiq).**
**7. O'lik dengiz ko'li sathi(-405 m).**
**8. O'lik dengizi (1 litr suvida 270 gr tuz bor.)**
**9.Cherapundji,Hindiston (yillik yog'in miqdori 24 metrga yetgan ).**
**10. Tayga.**
**11. Alp tog'lari.**
**12. Ural tog'lari.**
**13. Himolay.**
**14. Lena daryosi.**
**15.Baykal.**

**Mundarija**

Geografik qobiq komponentlari………………………………………………
Litasfera va uning tuzilishi. …………………………………………………..
Gidrasfera. Uning tarkibiy qisimlari……………………………………..
Atmasfera. Yerning iqlim mintaqalari . ………...............................................
Tabiat komplekslari ularning almashinishi va zonalligi.

Okeanlar tabiiy geografiyasi…………………………………………………..
Afrika materigi……………………………………………………………………
Afrikaning tabiat zonalari va tabiiy
geografik o’lkalari………………………………………………………………
Tropik cho’llar va subtropiklar tabiati……………………………………..
Tabiiy-geografik o’lkalari. Aholisi……………………………………………
Avstraliya materigi……………………………………………………………………
Okeaniya…………………………………………….........................................
Antraktida…………………………………………………………………….....
Janubiy Amerika materigi……………………………………………………
Shimoliy Amerika materigi………………………….........................................
Iqlimi va ichki suvlari…………………………………………………………
Shimoliy Amerikaning tabiat zonalari.Balandlik mintaqalari…………………
Yevrosiyo materigi……………………………………………………………
Iqlimi va uning xususiyatlari…………………………………………………
Sovuq va mo’tadil iqlim mintaqalari………………………………………….
Yevrosiyoning ichki suvlari……………………………………………………
Yevrosiyo materigining tabiat zonalari va mo’tadil iqlim mintaqalaridagi tabiat zonalari……………………………………………………………………..
Yevrosiyo hududining yirik tabiiy geografik o’lkalari………………………...
Dunyo aholisi va siyosiy xaritasi………………………………………………
Qisqa savollarga qisqa javob yozing…………………………………………
Topishmoqlar va qisqa s avollarning javoblari………………………………

## III.bob. Geografiyadan amaliy mashg’ulot daftarida foydalanishda tajriba sinov ishlari natijalari

### III.1.Geografiyadan amaliy mashg’ulot daftaridan foydalanishda tajriba sinov ishlari

Geografiya ta’limi metodikasi bo’yicha olib boriladigan tadqiqotlarda pedogogik eksperiment keng qo’llaniladi. Bu metod kuzatish metodining mantiqiy davomidir.

Eksperement yangi pedogogik tajribani yaratishga yo’naltirilgan bo’lib, u quyidagi holatlarda qo’llaniladi.

1-dan. Tadqiqotchi sinab ko’rmoqchi bo’lgan material o’quvchilar yoshiga va bilim saviyasiga mos kelishi yoki kelmasligini aniqlashda.

2-dan. Maktab geografiya kurslaridagi biror mavzuni o’rganishda tavsiya etilgan yangi metodlar va ko’rgazmali qo’llanmalarni birgalikda qo’llashning samarasini aniqlash zarurati tug’ilganda va h.k

Boshqacha qilib aytganda, bu eksperement ta’lim va tarbiya jarayonini ilmy nuqtai nazardan, tajribalar yordamida sinab ko’rish zaruriyati tug’ilganda qo’llaniladigan metoddir. Eksperementning muaffaqiyatli o’tishi avvalo uning maqsadi qanchalik puxta rejalashtirilganligiga, tadqiqot faraziga, hamda yangilikni o’zida qanchalik puxta mujassamlashtrganligiga bog’liq.

Geografiya talimi bo’yicha olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar bir necha bosqichdan: muammoning qo’yilishi, tadqiqot obekti va soxani tanlash, tadqiqotning maqsad va vazifalarini belgilash, ish farazini olg’a surish va uni o’z shaxsiy tajribasi hamda ilg’or pedogogik tajribalar yordamida o’rganish, kuzatish va eksperement tashkil etish kabilardan iborat bo’ladi. Ilmiy tadqiqot olingan natijalarga asoslangan holda azariy g’oyalarni ilgari surish va ularni amalda sinash bilan yakunlanadi.

Geografiya talimi metodikasi bo’yicha ilmiy tadqiqot ishlarini rivojantirishga mashxur geograf va metodis N. I. Baranskiy katta xissa qo’shgan. U geografiyani o’qitish borasida faqat eksperementlar uyushtirish orqali ilmiy asoslngan natijalarga erishish mumkinligini isbotlagan, hozirgi kunda bunday busuldan keng foydalanilmoqda.

Uslubiy tadqiqotlarda maktablar tajribasini o’zganishga alohida etibor berilyapti, olingan natijalar ta’lim jarayonida mukammal sinovlardan o’rmoqda. Tadqiqotlardan olingan yakunlarm o’quvchilar bilimi, ko’nikmasi, malakalarini qanchalik sifatli bo’lishi bilan baholanadi. Olingan miqdoriy ko’rsatkichlarni to’liq emas, qoniqarsiz va mutlaqo javob yo’q kabilarda izohlash mumkin. Ammo, ayrim xollarda bunday ko9’rsatkichlarda bilimlarni qanchalik sifatli egallaganligi aniqlab bo’lmaydi. Shuning uchun ko’p tadqiqotlarda eksperemental va nazorat sinflarda bilimlarning egallanishi maxsus tahlil qilinadi. Bunda bilishning qaysi soxasi puxta, qaysinisi qiyinchilik bilan o’zlashtirilishi malum bo’ladi.

O’zbekistonda geografiya ta’limi jarayonida oddiy daftarga amaliy mashg’ulot ishlashni yo’lga qo’yganmiz. So’rovnomalar o’tkazganimda quyidagi narsalar ma’lum bo’ldi. So’rovnomalarda savollar quyidagicha bo’lgan edi. (so’rovnomani geografiya o’qituvchilari asosida o’tkazdim).

1. Siz geografiyadan amaliy mashg’ulot daftari deganda qanday daftarni tushunasiz?
2. Siz geografiyada amaliy mashg’ulotlarni qanday ishlatasiz?
3. Siz amaliy mashg’ulotlarni darsning qaysi qismida ishlatasiz?
4. Sizda kurslar bo’yicha, mavzular asosida tuzilgan amaliy mashg’ulotlar mavjudmi?
5. Sizni tuzgan amaliy mashg’ulotlaringizda karta orqali berilgan topshiriqlar mavjudmi?
6. Har bit mavzu bo’yicha amaliy mashg’ulotlardan foydalanasizmi?
7. Sizga tayyor mashg’ulotlar daftari ishlanmasi bo’lishini xoxlarmidingiz?

Bunday so’roqnomani 20ta o’qituvchidan oldim. O’qituvchilarning 20tasi ham yuqoridagi 1-savolga o’quvchilar geopgrafiya darsi uchun tutiladigan alohida amaliy mashg’ulot daftari deb javob berishdi. 2-savolimga o’quvchilarning 8 nafari umumlashtiruvchi takrorlovchi darslarda, 7nafari ayrim mavzilarni mustahkamlaganda, 5tasi esa unday daftar ishlatmaymiz deb javob berdilar. Berilgan 3-savolga ularning 13tasi dars yakunida, 7tasi uyga vazifa berishda deb javob berdilar. Berilgan 4-savolimga hamma o’qituvchilar ayrim mavzular

bo'yicha mavjud deb javob berdilar. Berilgan 5- savolga o'qituvchilarning 8 nafari kartaning kamligini ro'kach qilishdi, 5tasi ko'ntr karta bilan ishlashini aytgan bo'lsa, 6tasi to'liq javob bear olgani yo'q. Berilgan 6-savolga barchasi to'liq foydalanmaymiz deb javob berdilar. So'rovnomamizdagi 7-savolga barchasi amaliy mashg'ulot daftari bo'lishini yozishgan. Biz tadqiqot ishimizning keyingi qismida amaliy mashg'ulot daftarimizni tajriba sinovidan o'tkazish maqsadida shovot tumanidagi 48-sonli maktabning geografiya o'qituvchilari Yaqubova Nafosat Qurbonnazar lar yordamida sinovdan o'tkazdik. Sinovdan o'tkazishda daftarning ayrim mavzulari bo'yicha ishladik. An'anaviy usulda o'tgan sinflarimiz bilan eksperement sinflarimizga amaliy mashg'ulot bo'yicha topshiriqlar berib natijalarni aniqladik. Ushbu amaliy mashg'ulotlar va natijalarni ishimizning keyingi qismida beramiz.

## III.2. Geografiyadan amaliy mashg'ulot daftaridan foydalanishda tajriba sinov natijalari

Eksperiment uyushtirishning eng keng tarqalgan usullaridan biri eksperement va nazorat sinflar tashkil qilish hisoblanadi. Bunda eksperiment sinflarda o'quv materiali tadqiqotchi tavsiya etgan yangi metod va usullar yordamida uyushtiriladi.

Nazorat sinflarda esa ta'lim an'anaviy usul olib boriladi. Har ikkala sinflar o'quvchilar soni, ularning bilim saviyasi o'quvchilarning metodik mahorati deyarli bir hil bo'lishi kerak, aks holda eksperimentdan ko'zlangan natijaga erishish qiyin bo'ladi.

Eksperiment nazariy g'oyalarning qanchalik to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini isbotlashga yordam beruvchi jarayondir. Demak, eksperiment shunday tadqiqot usuliki, unda pedogogik jarayonning obektiv qonuniy aloqalari tadqiq qilinadi. Barcha metodika fanlari qatori geografiya ta'lim metodikasining kelajakdagi taraqqiyotini ham eksperimentlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Odatda nazariya va empirik tadqiqot birgalikda qo'llaniladi. Chunki tadqiqot jarayonida qo'llaniladigan barcha usullar tahlil, sintez, induksiya, deduksiya,

umumlashtirish, abstraksiya kabi mantiqiy vositalar yordamida amalgam oshiriladi. Uslubiy tadqiq jarayoni bir necha bosqichlardan iborat bo’ladi. Bular praf. L.M.Pancheshnikova tadqiqotlarida atroflicha yoritilgan bo’lib, ular quyidagilardan iborat. Bular muammoning qo’yilishi, tadqiqot asosi obektini tanlash tadqiqotning maqsad va vazifalarini belgilash, ish farazini ilgari surishdan iborat.

Kuzatish va eksperimental ishlar tadiqoqot bosqichlarining asosini tashkil qiladi. Tadqiqot yakunida olingan ma’lumot va bilimlar umumlashtiriladi va tadqiqot natijalari tajriba tekshiruvlaridan o’tkaziladi.

Biz tadqiqot ishimizda eksperiment ish uchun 6”B” sinfni tanladik, nazorat sinf uchun 6 “A” sinf tanlandi.

Biz eksperiment sinfga dars jarayonida quyidagi amaliy mashg’ulotlarni sinovdan o’tkazdik.

Avstraliya materigi 3.1.rasm

17mashg’ulot

1.Atlas va kartadan foydalanib



Avstraliya va Afrikaning

Geografik joylashishini

Taqqoslang. _ _ _ _ _ _ _ _

_ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

_ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

_ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

2. Avstraliya cho'llari bilan

Afrika cho'llarini taqqoslang.

(ularning o'xshash va farqlarini tushuntiring)_ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

_ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

3. Afrika va Avstraliya tog'lari va ichki suvlarini qiyoslab bering. _ _ _ _ _ _ _

_ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

18-mashg'ulot.

Atlasdan foydalanmagan holda Avstraliya karta sxemasiga Avstraliyaning sizga ma'lum bo'lgan geografik obektlarini belgilang. (Belgilash vaqti 3 minut)

Avstraliya materigi karta sxemasi.

3.2.rasm



3.1.jadval

2. Karta sxemaga yozilgan geografik obektlarni sanab jadvalga kiriting.

| Mashq bajarilgan sana | Toponimlarning umumiy soni | To'g'ri topilgan toponimlar soni | Yakuniy baho |
|---|---|---|---|
| | | | |

19-mashg'ulot.

1.atlasdan foydalangan holda Avstraliya va Afrika relyefini taqqoslang. _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

2.Atlasdan foydalanib Avstraliya sistemasini taqqoslang._ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

O'qituvchiga amaliy mashg'ulot
daftaringizni berishdan oldin
yozgan ishlaringizni yana bir bor
diqqat bilan o'qib chiqing

baho:_______

20-mashg'ulot

1.Karta sxemali Avstraliyaning chekka nuqtalarni yozib chiqing.

2.Avstraliyani o'rganishda kimlar ishtirok etishgan? _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

3.Avstraliya relyef tuzilishiga ko'ra necha qismga bo'linadi?_ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

4.Qanday foydali qazilmalarga boy va qaysi qazilmalar bo'yicha dunyoda yetakchi? _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

21-mashg'ulot.

1.Avstraliya iqlimi bilan Afrika iqlimini taqqoslang. _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

2.Avstraliya qitasida qanday iqlim mintaqalari shakllangan? _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

3.Avstraliya ichki suvlarini karta sxemaga tushuring.

4.Avstraliyada qanday tabiat zonalari mavjud? _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

5.Afrika va Avstraliya tabiat zonalarining o'xshash va farqlari nimalardan iborat? _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

3.2.jadval

Jadvalni to'ldiring

| Geografik joylashuvi | Javoblar |
|---|---|
| Ekvatorga nisbatan joylashuvi | |
| Tropik, qutb doirasiga nisbatan joylashuvi | |
| Boshqa materiklarga nisbatan joylashuvi | |
| Chekka nuqtalari va koordinatalari | |

22-mashg’ulot

1.Avstraliya iqlim mintaqalarini har hil ranglar bilan btdagi katra sxemaga tushuring.

2.Avstraliyada qanday qo’riqxonalar mavjud? _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

3.Avstraliyada qanday milliy bog’lar bor? _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

4.Avstraliyaning haltali hayvonlari haqida nimalarni bilasiz? _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

5.Avstraliya materigini okeanlar, dengizlar va bo’g’ozlarga nisbatan joylashishini misollar bilan yozing. _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

6.Avstraliya karta sxemasiga chekka dengizlar orollarni qo’ltiq va bo’g’ozlarni tushuring.

7.Avstraliyani 30-C janubiy kenglik bo’ylab iqlim o’zgarish sharotini kuzating, buning uchun bevosita kartadan foydalanamiz.

a)ichki iqlim mintaqada iqlimning har hillik sababini tushuntiring.

Rasmni tushunarli qiling.

Sharqiy Avstraliyaning yog’ingarchiligi haqida ma’lumot bering. _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

_ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

_ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

_ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

_ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

b)Aholi va dunyo aholi zichligi kartasidan foydalanib tropik iqlim mintaqasida aholi joylashishi haqida xulosa qiling.

23-mashg’ulot.

Okeaniya.

1.Okeaniyaning asosiy hususiyati nimalardan iborat? _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

_ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

2. Okeaniya geografik o'rniga ta'rif bering. _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

_ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

3.Okeaniyani o'rganishda kimlarni xizmatlari katta? _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

_ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

4.orollarning geologik tarixi va qanday jinslardan tuzilganligiga ko'ra qanday guruhlarga bo'lish mumkin? _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

_ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

5.Okeaniyada qanday iqlim mintaqalari shaklllangan? _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

_ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

6.Okeaniya orollari kelib chiqishiga ko'ra qanday to'plam orollariga ajratiladi?

_ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

_ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

Baho:__________

Bundan tashqari eksperiment sinfga Okeaniya va Antarktida materigi bo'yicha ishlangan amaliy mash'ulotlar topshiriqlarni ham sinovdan o'tkazdik.

Eksperiment o'tkazilib bo'lingandan keyin o'tkazilgan mavzular bo'yicha ikkala sinfga ham amaliy mashg'ulot daftaridan amaliy mashg'ulot berildi.

Amaliy mashg'ulot quyidagicha

Janubiy Amerika materigi bo'yicha

28-mashg'ulot.

3.4.rasm




1.Karta va atlasdan

Foydalanib Janubiy Amerika

va Avstrailiyani geografik

joylashishini taqqoslang.

_ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

_ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

_ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

_ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

2.Bu materikning iqlimining

hilma xilligiga qaysi omillar

ta’sir qiladi? _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

_ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

3.Janubiy Amerikaning asosiy

Hususiyatlari nimalardan iborat? _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

_ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

29-mashg’ulot.

1.Kartadan foydalanmagan xolda quyidagi karta sxemaga Janubiy Amerika

materigiga oid siz bilgan obektlarni belgilang. (Bajarish vaqti 5 minut).

Janubiy Amerika materigi karta sxemasi

3.5.rasm



3.3.jadval

Kartada berilgan ob'ektlarni sanang va ma'lumotlarni jadvalga kiriting.

| Mashq bajarilgan sana | Toponimmlarning umumiy soni | To'g'ri topilgan toponimlar soni | Baho |
|---|---|---|---|
| | | | |

30-mashg'ulot.

Kartadan foydalangan holda:

1.Avstraliya va Janubiy Amerikaning relyefini taqqoslang. _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ 2.Materikning yirik relyef shakllarini tartib bilan joylashtiring va Litosfera plitalari sistemasidagi holati haqida hulosa qiling. _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

3.Avstraliya va Janubiy Amerikaning iqlim mintaqalarini taqqoslang. _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

Baho:________

O'tkazilgan eksperiment asosida o'quvchilar quyidagicha natijalarga erishdilar.

3.4-jadval

6"A", 6 "B" sinflarida "Janubiy Amerikaning materigi" bo'yicha tuzilgan amaliy mashg'ulotning eksperiment natijalari.

| Sinflar | 5 | 4 | 3 | 2 |
|---|---|---|---|---|
| 6"b"-sinf 25 o'quvchi eksperiment sinf | 14 | 8 | 3 | - |
| 6 "a" –sinf 23 o'quvchi nazorat sinf | 8 | 6 | 7 | 2 |

Yuqoridagi eksperiment natijalaridan ko'rinib turibdiki 6"b"-sinf yani eksperiment sinf o'quvchilarining sifat ko'rsatkichi yaxshi natija bergan. Nazorat sinf o'quvchilarining sifat ko'rsatkichi yaxshi natija bermagan, bunga sabab biz tanlagan 6 "b"- sinf amaliy mashg'ulot daftari bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'ganligidir. Shuningdek, tajriba sinov ishlari natijasida o'quvchlarni kontur karta bilan ishlashlari, amaliy mashg'ulot to'g'risida bazi o'quvchilar tushunchaga ega emasligi ma'lum bo'ldi.

## Xulosa

Bugungi kunda ta'lim jarayonida tubdan o'zgarishlar yuzaga kelib, sifat bosqichiga o'tish jarayonida pedogog, olimlarimiz izlanishlar olib bormoqdalar. Biz bu bitiruv malakaviy ishni yozishda bu jarayonga biroz bo'lsa ham o'z hissamizni qo'shishga harakat qildik. Amaliy mashg'ulotimiz mavzulariga oid bo'lgan adabiyotlardan foydalanib chiqdik, hamda tegishli xulosalarga ega bo'ldik. Bitiruv malakaviy ishidagi geografiyadan amaliy mashg'ulot daftarida 6-sinf materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasini tuzilishi bo'yicha topshiriqlar berilgan. Har bir kursni o'rganishda avvalo uning tuzilishi tarkibiy qismlarini o'rganish maqsadga muofiqdir.

Demak, amaliy mashg'ulot daftarini yaratish tadqiqot ishlarini ishlash jarayonida bugungi kunda zarur bo'lgan ishlardan biri sanaladi. Amaliy mashg'ulot daftarini amaliyotga joriy qilish, sinovdan maktablarda o'tkazish, daftardan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish ishimizda kengroq tadqiq qilindi. Geografiya fanida tabiatda bo'ladigan voqea xodisa, jarayonlarni o'rganishda hamda, dunyo mamlakatlarini tadbiq qilishda daftar yetakchi vazifasini bajaradi.

Ishimiz hulosasida

1.Amaliy mashg'ulot daftarini maktablarda joriy qilish lozim.

2.Amaliy mashg'ulot daftari natijalarini xuddi darslik sinovidek sinovdan o'tkazish lozim.

3.Amaliy mashg'ulot daftari bilan ishlash bo'yicha semenarlar tashkil qilish, o'qituvchilarni qayta tayyorlash institutlari uchun metodik qo'llanmalar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Tavsiyalar.

1.Amaliy mashg'ulot daftarini electron tarzda tayyorlash.

2.Amaliy mashg'ulot daftari bilan o'quvchilarni (barcha 6-sinf geografiya kursi) to'liq ta'minlash.

3.Dastlabki yillarda bitta maktab tanlanib tajriba sinovidan o'tkazish lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsam, amaliy mashg’ulot daftari yordamida o’quvchilar materik va okeanlar haqida ma’lumotlarga ega bo’ladilar. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasini o’rganib o’quvchi yer rang – barangligi bilan tanishadi. Unda bo’layotgan jarayonlarning qonuniyatlarini, odamlar va tabiatni o’zaro munosabatlarini o’ziga hosligini o’rganadi. Biz bu bitiruv malkaviy ishimizda o’z imkoniyatlariiz doirasida “Geografiyadan amaliy mashg’ulot daftarini ” yaratishga harakat qildik. Bitiruv malakaviy ishi loyihasining yakunida quyidagi fikrlarni bayon qilmoqchiman.

Jaiyat taraqqiyoti davlatlar ishtimoiy va siyosiy hayotini o’zgartirib yuborish mumkinligi ko’plab tarixiy salnomaarning guvohimiz.

Davlatimiz mustaqillikka erishgandan keyin umumiy ishtimoiy hayotimizda chuqur o’zgarishlar ro’y berdi. Yangi avlodni tarbiyalash ularga ta’lim berish sohasini islox qilish mumkin. Shu bois daftarimiz yangi avlod tarbiyasini yangicha ta’lim jarayonini shakllantirish, zaruriyatlarini tug’dirdi. Shu bois o’quvchilar olgan bilimlarini amalda qo’llay olishlari ancha ahamiyatga ega. Maktab o’quvchisi egallagan bilimlarini va tushunchalarni amalda qo’llamas ekan ular egallagan bilimlari quruq va soxtaligicha qolaveradi. Shu bois mazkur loyihani biz o’quvchilar olishi lozim bo’lgan bilimlarni qo’llash uchun barcha usullarni taklif qildik va mana shu taklifimiz amaliyotda qo’llab ko’rib ijobiy natijalarga erishdik deb o’ylayman. BMI – loyihalashni yozishda ustozlar R.Qurbonniyozov, Musayev va boshqa rus olimlari tomonidan yozilgan adabiyotlardan foydalanildi. Mazkur ishni yozishda menga yordam bergan yo’l yo’rug’ ko’rsatgan ilmiy rahbarim Matsaidova Sayyora domlaga o’z minnatdorchiligimni bildiraman.

## Foydalanilgan adabiyotlar


1. I.A.Karimov Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so'zlagan nutqi, 1997-yil 29-avgust Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T. 1997-yil.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi " qonuni. Barkamol avlod O'zbekiston Respublikasining poydevori, T 1997-yil
3. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori, T . 1997-yil
4. Abulqosimov A, A. Soatov "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi " 6-sinf darslik. "O'qituvchi " nashriyoti . Matbaa ijodiy uyi T 2011-yil
5. Abdug'aniyev Y, Nazarov U . Didaktik o'yinlar Sovet maktabi – 1990-yil №2 42-45
6. Abulqosimov A. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi. T Mehnat 2001-yil
7. Avazov Sh, Matsaidova S. Geografiya ta'limi texnalogiyalari. Urganch 2004-yil
8. Безруков А, Певоварова Г Занительная география , Масква «АСТ - ПРЕСС» , 2001Г
9. Budanov V.P Tabiiy geografiya o'qitish metodikasi – T. O'dapu 1950-yil 51-58b
10. Babuskiy Yu. K "Hozirgi zamon umumiy ta'lim maktabida o'qitish metodlari" T O'zbekiston 1990-yil .
11. Даринский А.В. Методика пренадования географии: Учеб. Пособие для студ. Географ специальн пед ин-тов. 3-е изд-М: Просвещение – 1975. 367 а
12. Gerasimov T G Gryunberg G.Yu, Neklyukova N.P "Tabiiy jugrafiya " (Boshlang'ich kurs) 6-sinf uchun darslik. T O'qituvchi 1994-yil

13. Kartel L.M “Tabiiy geografiyadan didaktik materiallar” T. O’qituvchi 1991-yil 125b
14. Крылова О.В интересний «Интересний урок географии» Кн: для учителя:из оныта работы – М. Просвещения 1989-г
15. Крылова О.В Уроки географии: 7кл ИЗ:оныта работы – М : Просвещения 1990г 240с
16. Крылова О.В «Практические работы по географии» Масква 2005г
17. Каринская В.А.Щенев А.В, Душинов И.В «Материклар ва океанлар географияси» Т. Укитувчиб 1990г
18. Mo’minov O. “Geografiya ta’limi metodikasi” T. O’qituvchi 1986-yil 122b
19. Musayev P. Qurbonniyozov R. “O’quvchilarning geografiyadan bilim malakalarini aniqlashning shakl va usullari”. O’qituvchilar uchun metodik qo’llanma. T. O’qituvchi 1985-yil 87b
20. Maksimov N.A “Tabiiy geografiyadan metodik qo’llanma” T. O’qituvchi 1991-yil
21. Ochilov M. Yangi pedogogik texnalogiyalar – Qarshi – Nasaf 2000-yil 80b
22. Панурова Г.А «Проблемный подход в обучние географии в средней школе» М.Просвещение 1991г
23. Saidxamidov N. “Yangi pedogogik texnalogiyalar ” T. “Moliya ” 2003-yil
24. Saidaxmedov N “Yangi pedogogik texnologiya: taxlil, tarif, mulohazalar”. T. O’qituvchi 2000-yil 112b
25. Qurbonniyozov R “Geografiya o’qitish metodikasi” Urganch 2001-yil
26. Qurboniyozov R “Geografiyadan atama va tushunchalaring qisqacha izohli lug’ati” Urganch 1994-yil
27. Qurbonniyozov R , Matsaidova S, Egamberdiyev Sh “Materiklar va okeanlar tabiiy geografoyasini o’rganish metodikasi” Urganch 2000-yil
28. Qurbonniyozov R , Matsaidova S, Ortiqova I , Qurbonniyozova N

"Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasini o'qitishda darslarni rejalashtirish" . UrDU 2002-yil

29. Элькин Г.М , Габочая тетрадь по географии материков и океанов. Санкт – Питербург «ПАРИТЕТ»2006 г

30. Xayitov A . Geografik o'yinlardan foydalanish. Sovet maktabi . 1987-yil №11 43-45b